radigmani takomillashtirib borishdan jamiyat manfaatdor bo‘lishi; 4) ekofalokatlar va ekofojialarni bartaraf etishning samarali, ratsional usullarini topish; 5) inson hayotini, faoliyati va turmushini zavqli, sermazmun va oliyjanob qilishda namoyon bo‘ladi. Bu sotsioekologik parametrlar muammoni ijtimoiy-falsafiy idrok va tahlil qilish jarayonida shakllandi, ularni yana boyitish, ekzistensial nuqtayi nazardan glo-bal voqelikka aylantirish mumkin.

Xulosa. Ekologik madaniyatni tizimli-funksional tahlil qilish, uning mohiyati, tarkibiy elementlari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot davomida ekologik madaniyat funksiyalarining turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingani, biroq ularni klassifikatsiyalashda yagona metodologik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Shu sababli ekologik madaniyat funksiyalarini aniqlashda ekologiyaning substansional mohiyati va inson–jamiyat–tabiat tizimidagi o‘zaro aloqalar asos qilib olindi.

Tadqiqot natijasida ekologik madaniyatning asosiy funksional tarkibi ekologik ong, ekologik bilim, ekologik e’tiqod, ekologik faoliyat va ekologik taraqqiyot kabi bosqichlardan iborat ekanligi asoslandi. Mazkur elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, subyektiv munosabatlarning obyektiv ijtimoiy amaliyotga aylanish jarayonini ifodalaydi. Ayniqsa, ekologik taraqqiyot ekologik ong, bilim, e’tiqod va faoliyatning pirovard natijasi sifatida namoyon bo‘lib, sotsioekologik rivojlanishning muhim mezoni hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy vazifasi inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, sotsioekogarmoniyani shakllantirish hamda ekologik xavf va tahdidlarning oldini olishga xizmat qilishi isbotlandi. Hozirgi globallashuv va ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda jamiyat taraqqiyotini ekologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish zarurati yanada ortib bormoqda.

Demak, ekologik madaniyat nafaqat ma’naviy-ma’rifiy qadriyat, balki insoniyatning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ekologik madaniyatning tizimli-funksional asoslarini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ilm-fan hamda jamiyat taraqqiyotining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алимасов В. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик, Тошкент, “Фан ва таълим полиграф”, 2025, 88–89-бетлар.

(2). Фортунатов А.А. Функции экологической культуры: анализ определений. Знание. Понимание. Умение. 2015, № 4, с. 114.

(3). Дорошко О.М. Формирование экологической культуры как цель образования для устойчивого развития. Гродно, ГрГУ им. Я.Купалы, 2010, с. 8–11.

(4). Логвиненко В.М. Функции экологической культуры и их значение в учебном процессе. Электронний ресурс. Режим доступа: www.confrences.neasmo.org.ua;

(5). Левинская О.В. Понятие, структура и функции экологической культуры. Автореферат дисс. на соиск. уч. степени канд. филос. наук, 2000, с. 6–7.

(6). Махмудова Ш.Л. Экологическая культура как фактор гуманизации отношения общества к природе. Дисс. на соиск. уч. степени канд. филос.наук, Тошкент, 1994; Икрамов Э.Ж., Хатамов А.А. Шахснинг экологик маданияти. Тошкент, Ибн Сино номидаги нашр., 2001; Бозорова Н.Ш. Талабаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Пед. фан.номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, Қарши, 2006; Амонлаев А. Экологическая культура человека и ее особенности. “Тарих ва жамият”, 2021, 1-сон, 11–19-бетлар.

(7). Тожихонов У., Саидов А. Ҳуқуқ маданияти назарияси. 1-том, Тошкент, ИИВ Академияси, 1997, 108 –188-бетлар.

Mamatqulova Nilufar Xusanovna (Toshkent davlat Tibbiyot universiteti Termiz filiali “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b, (PhD)

MAROSIMLARNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI VA ULARNI O‘RGANISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada marosimlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy funksiyalari va mazkur fenomenni tadqiq etishning yetakchi nazariy-metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida marosimlarning integrativ, kommunikativ, regulyativ, identifikatsion, kompensator-psixologik va ijtimoiy xotirani saqlash kabi asosiy vazifalari tizimlashtirilgan. Sharq-turkiy axloqiy-pedagogik meros G‘arb sotsiologik maktablari bilan sintez qilinib, marosimlar transformatsiyasini baholashning obyektiv mezoni ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *marosim, ijtimoiylik, integratsiya, identifikatsiya, transformatsiya, sotsiologik, konstruktivizm,g'oya.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ ОБРЯДОВ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИХ ИЗУЧЕНИЮ

Аннотация. *В данной статье анализируются роль обрядов в обществе, их социальные функции и ведущие теоретико-методологические подходы к исследованию данного феномена. В процессе исследования систематизированы такие основные функции обрядов, как интегративная, коммуникативная, регулятивная, идентификационная, компенсаторно-психологическая, а также сохранение социальной памяти. Путем синтеза восточно-тюркского морально-педагогического наследия с западными социологическими школами разработан объективный критерий оценки трансформации обрядов.*

Ключевые слова: *обряд, социальность, интеграция, идентификация, трансформация, социологический, конструктивизм, идея.*

SOCIAL FUNCTIONS OF RITUALS AND THEORETICAL APPROACHES TO THEIR STUDY

Annotation. *This article analyzes the role of ceremonies in society, their social functions, and the leading theoretical and methodological approaches to studying this phenomenon. During the research, the main functions of ceremonies-such as integrative, communicative, regulative, identificational, compensatory-psychological, and the preservation of social memory-have been systematized. By synthesizing the Eastern-Turkic moral and pedagogical heritage with Western sociological schools, an objective criterion for evaluating the transformation of ceremonies has been developed.*

Keywords: *ceremony, sociality, integration, identification, transformation, sociological, constructivism, idea.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida marosim, urf-odat va an'analar ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi, individlarni bir butunlikka jipslashtiruvchi hamda avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prikni ta'minlovchi muhim sotsial-madaniy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi shiddatli globallashuv, madaniyatlar integratsiyasi va axborotlashuv sharoitida har bir millatning o'ziga xosligini saqlab qolish masalasi bevosita uning milliy-madaniy merosi, xususan, marosimlar tizimining hayotiyligi bilan uzviy bog'liqdir.

Marosimlar nafaqat tarixiy xotira, balki yoshlarni ijtimoiylashtirish, ularda mustahkam axloqiy me'yorlar va ijtimoiy tafakkurni shakllantirishning ta'sirchan tarbiyaviy vositasi hamdir. An'ana va urf-odatning ramziy-harakatli amaliy ifodasi bo'lgan marosim orqali jamiyat o'zining eng oliy qadriyatlarini keyingi avlodga uzatadi. Shu bois ularning tabiati va mohiyatini ilmiy anglash, kelajak avlod ma'naviy kamolotidagi o'rnini baholash bugungi kun ijtimoiy-gumanitar fanlarining o'ta dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot oldida ikkita o'zaro bog'liq va murakkab ilmiy muammo ko'ndalang bo'ladi: birinchidan, marosim zamonaviy jamiyatda qanday real ijtimoiy vazifalarni bajarmoqda? Ikkinchidan, mazkur fenomenni va undagi transformatsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan qanday nazariy yondashuvlar asosida obyektiv o'rganish maqsadga muvofiq? So'nggi yillarda kundalik hayotimizdagi ko'plab marosimlarning shakli o'zgarib, ba'zan ularning asl mohiyati unutilayotgani yoki mazmunsiz dabdababozlikka aylanib qolayotgani kuzatilmoqda. Bu esa marosimlar transformatsiyasini ilmiy tahlil qilish uchun aniq va xolis mezonlar ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda marosimlarning ijtimoiy funksiyalari va ularning transformatsiyasini ilmiy tahlil qilish uchun Sharq-turkiy axloqiy-pedagogik meros hamda funksionalistik, jarayonli, ramziy-interpretativ va konstruktivistik yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirildi. Mazkur nazariyalar marosimlarning tarbiyaviy, ijtimoiy, ramziy va dinamik xususiyatlarini turli nuqtai nazardan yoritib, ularning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy birlikni ta'minlash, qadriyatlarni saqlash, hayotiy o'tish bosqichlarini tartibga solish hamda zamonaviy ehtiyojlarga, mos ravishda, o'zgarish mexanizmlarini kompleks baholash uchun yaxlit metodologik asosni shakllantirishi aniqlandi.

Tahlil va natijalari. Manbalarni chuqur tahlil qilish va belgilangan metodologik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish natijasida marosimlarning jamiyatdagi o'rni va mohiyatini belgilab beruvchi oltita asosiy ijtimoiy funksiyasi tizimlashtirildi. Ushbu funksiyalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi va har bir konkret marosimda turli darajada uyg'unlashadi:

Marosimning eng azaliy vazifasi insonlarni birlashtirishdir. Emil Dyurkgeym ta'kidlaganidek, marosim jarayonida yuzaga keladigan "jamoaviy hissiyot" (collective effervescence) alohida individlarni yagona ma'naviy butunlikka bog'laydi va jamiyatning o'z birligini his qilishiga, uni qayta tiklashiga xizmat

qiladi. Bu quvvat turkiy an'analarda Ziyo Go'kalp tomonidan tavsiflangan "to're" konsepsiyasi bilan bevosita hamohangdir: to're xalq ichida birdamlik va o'zaro yordamni mustahkamlovchi, shaxsni jamoa tarkibiga integratsiya qiluvchi kuchli xulq namunalari tizimidir.

Marosimlar qadriyatlar, bilim va ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatuvchi muhim kommunikatsiya kanalidir. Bu funksiya an'ananing etimologik mohiyati bo'lmish "an'ana" (uzluksiz uzatish zanjiri) tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Marosimlar orqali ajdodlarning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy merosi yosh avlodga nafaqat so'z, balki amaliy harakatlar orqali tushunarli tarzda yetkaziladi.

Pol Konnerton o'zining "Jamiyatlar qanday eslaydi" asarida ko'rsatib o'tganidek, marosimlar (ayniqsa, xotira va tantana marosimlari) o'zining takrorlanuvchi, tana va amaliyot orqali ifodalanuvchi tabiati bilan ijtimoiy xotiraning asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Shu ma'noda, marosim jamiyatning "jonli xotirasi"dir. U qotib qolgan yozma hujjatlardan farqli o'laroq, o'tmishdagi voqealar va ularning ma'nolarini takroriy amaliyotlar orqali bugungi kunda jonlantiradi.

Marosimlar xulq-atvorni tartibga solish va jamiyatda ijtimoiy nazoratni ta'minlash vazifasini bajaradi. Ular individlarga "nima to'g'ri va nima noto'g'ri" ekanligini, muayyan hayotiy vaziyatlarda (to'y, aza, bayram) qanday yo'l tutish kerakligini ramziy shaklda ko'rsatadi. Turkiy-islomiy mumtoz adabiyotda bu funksiya "adab" (me'yor, odob) tushunchasi orqali chuqur yoritilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"ida va Kaykovusning "Qobusnoma"sida inson va jamiyat tartibi aynan marosim hamda urf-odatlarga qat'iy rioya qilish asosida qurilishi asoslab berilgan.

Marosimlar orqali inson "biz kimmiz?" degan savolga amaliy javob topadi va o'zini muayyan jamoaga, millatga yoki madaniyatga mansub deb his qiladi. Ziyo Go'kalpning "hars" (milliy-madaniy o'zak) konsepsiyasi aynan shu funksiyaning nazariy ifodasidir. Urf-odat va marosimlar millatning betakror o'ziga xosligini belgilovchi "hars"ning uzviy qismi bo'lib, globallashuv sharoitida milliy qiyofani yo'qotmaslikning asosiy quroliga aylanadi.

Kompensator-psixologik funksiya (Ruhiy muvozanat). Hayotdagi noaniqlik, inqiroz yoki og'ir sinovlar (kasallik, yaqinlarini yo'qotish, hayotiy burilish pallalari) vaqtida marosim insonga barqarorlik, tartib va umid hissini beradi. Bronislav Malinovskiy ko'rsatib o'tganidek, xavf va noaniqlik kuchaygan vaziyatlarda marosimlar inson ruhiyatini tinchlantiruvchi, stressni yumshatuvchi va psixologik muvozanat-ni qayta tiklovchi o'ziga xos himoya mexanizmi sifatida ishlaydi.

Tadqiqot natijasida aniqlandiki, ushbu oltita funksiya marosimlarning yashovchanligini ta'minlovchi asosiy mezonlardir. Har qanday marosimning jamiyatdagi ahamiyati va undagi transformatsiyalarning ijobiy yoki salbiyligi aynan mana shu funksiyalarning qay darajada saqlanib qolganligi bilan o'lchanadi.

Olingan natijalar va tahlil qilingan nazariy yondashuvlar sintezi shuni ko'rsatadiki, marosimlar fenomenni bir yoqlama, faqatgina tavsifiy yoki faqatgina tanqidiy nuqtai nazardan o'rganib bo'lmaydi. Sharq-turkiy axloqiy-pedagogik yondashuv milliy marosimlarimizning tarbiyaviy va qadriyatli o'zagini ochib bersa, G'arb sotsiologik va konstruktivistik maktablari ularning zamonaviy jamiyatdagi o'zgaruvchanligini va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashishini baholash imkonini beradi. Bu ikki qutbning uyg'unlashuvi tadqiqot uchun mukammal tahliliy ramka (freymvork) yaratadi.

Muhokamaning eng markaziy nuqtasi marosimlar mazmuni va xarakteridagi o'zgarishlarni (transformatsiya jarayonlarini) baholash mezonidir. Amaliyot va konstruktivistik yondashuv (P.Burdye, K.Bell, E.Xobsbaum) ilgari surganidek, marosimlar bir marta o'rnatilgan va toabad muzlab qolgan hodisa emas. Ular doimiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlar asosida qayta quriladi, ba'zan esa yangidan "ixtiro qilinadi". Bu tabiiy jarayon. Biroq bu o'zgarishlar jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligini qanday o'lchash mumkin?

Aynan yuqorida sanab o'tilgan oltita ijtimoiy funksiya mazkur savolga xolis javob beradigan asosiy o'lchov birligiga aylanadi. Bu mezon quyidagicha ishlaydi:

Ijobiy transformatsiya (zamonga moslashuv). Marosimning tashqi ko'rinishi, shakli yoki o'tkazilish tartibi qanchalik o'zgarmasin, agar u o'zining integrativ (birlashtiruvchi), kommunikativ va kompensator-psixologik funksiyalarini saqlab qolsa, bu jarayon milliy madaniyatning hayotiyligi va rivojlanishi sifatida baholanadi. Shunday qilib, marosimlarning transformatsiyasini baholashda, ularning tashqi atributlariga emas, balki aynan bajarayotgan ijtimoiy funksiyalariga e'tibor qaratish eng to'g'ri ilmiy yo'l hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari marosimlarning jamiyat hayotida muhim ijtimoiy institut ekanligini, ular ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish kabi muhim funksiyalarni bajarishini ko'rsatdi. Shuningdek, marosimlarni o'rganishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarni Sharq-turkiy axloqiy-pedagogik merosi bilan uyg'unlashtirish eng samarali metodologik asos ekani aniqlandi. Tadqiqot marosimlarning mazmuni va ijtimoiy

funksiyalarini saqlab qolish ularning zamonaviy sharoitga muvaffaqiyatli moslashuvini, mazkur funksiyalarning yo‘qolishi esa marosimlarning inqirozini anglatishini asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qodirov B., Tursunov R. (2024). Globallashuv sharoitida milliy marosimlarning transformatsiyasi: sotsiologik va konstruktivistik yondashuv (P.Burdye va E.Xobsbaum nazariyalari asosida). Toshkent, Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 112–118-betlar.

(2). Xudoyberdiyeva G. (2026). Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda milliy marosimlar va urf-odatlarning tarbiyaviy (regulyativ) ahamiyati. “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-metodik jurnali, 2-son, 45–51-betlar.

(3). Toshpo‘latov A. (2023). E.Dyurkgeym va B.Malinovskiy asarlarida marosimlarning integrativ va kompensator funksiyalari tahlili. “Ijtimoiy fanlar xabarnomasi”, 3(4), 77–84-betlar.

(4). Go‘kalp Ziyo. (2022). Turkchilik asoslari (ilmiy-izohli, to‘ldirilgan yangi nashr). Toshkent, “Akademnashr”.

(5). Djurayeva N. (2025). Marosimlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va o‘tish marosimlari (A. van Gennep va V.Terner nazariyalari talqini). Monografiya, Samarqand, SamDU nashriyoti, 56–61-betlar.

(6). Connerton P. (2023). How Societies Remember (Reprint edition with modern critical introduction). Cambridge University Press, p. 41–45.

Alimov Akmalbek Abdumajidovich (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Davlat boshqaruvi yo‘nalishi tinglovchisi; akmalbekalimov001@gmail .com; Orcid: 0104-1987-2003-1991)

EKSTREMISTIK VA RADIKAL G‘OYALARNING ASOSIY MOHIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekstremistik va radikal g‘oyalarning mazmun-mohiyati, ularning vujudga kelish omillari hamda jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolar ongiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarida yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va diniy sabr-toqatni mustahkamlash ekstremistik va radikal g‘oyalarning oldini olishning muhim sharti ekanligi asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *ekstremizm, radikalizm, ekstremistik g‘oyalar, radikal g‘oyalar, mafkuraviy tahdid, diniy ekstremizm, terrorizm, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, ma’naviy xavfsizlik, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi.*

ОСНОВНАЯ СУЩНОСТЬ ЭКСТРЕМИСТСКИХ И РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы сущность экстремистских и радикальных идей, факторы их возникновения, а также их негативное влияние на безопасность общества, социальную стабильность и общественное сознание. По результатам исследования обосновано, что защита молодежи от деструктивных идей, укрепление толерантности, межнационального согласия и религиозной терпимости являются важными условиями предупреждения распространения экстремистских и радикальных идей.*

Ключевые слова: *экстремизм, радикализм, экстремистские идеи, радикальные идеи, идеологическая угроза, религиозный экстремизм, терроризм, толерантность, межнациональное согласие, духовная безопасность, воспитание молодежи, информационная безопасность.*

THE ESSENTIAL NATURE OF EXTREMIST AND RADICAL IDEOLOGIES

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the nature of extremist and radical ideas, the factors contributing to their emergence, and their negative impact on public security, social stability, and public consciousness. The findings of the study substantiate that protecting young people from destructive ideologies, strengthening tolerance, interethnic harmony, and religious tolerance are essential prerequisites for preventing the spread of extremist and radical ideas.*

Keywords: *extremism, radicalism, extremist ideas, radical ideas, ideological threat, religious extremism, terrorism, tolerance, interethnic harmony, spiritual security, youth education, information security.*

Kirish (Introduction). Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida ekstremistik va radikal g‘oyalarning turli vositalar orqali tarqalish ko‘lami ortib bormoqda. Bunday g‘oyalar jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, yoshlarning mafkuraviy ongi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ularni yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish xavfini kuchaytiradi. Shu bois ekstremistik va radikal g‘oyalarning mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning kelib chiqish omillari hamda tarqalish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, ushbu tahdidlarga qarshi samarali